

Nasriy asarlar tarjimasida tasviriy vositalarni qayta yaratish masalasi

Nurdinova Fotima Xolmirzayevna,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, tayanch doktorant.

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarda tasviriy vositalarning qoʻllanishi, ularning ahamiyatli jihatlari va tarjimada aks ettirish masalalari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, badiiy asarlar tarjimasida tarjimon mahoratining namoyon boʻlishi misollar orqali ifodalab berilgan.

Kalit soʻzlar. Peyzaj, tabiat tasviri, muallif uslubi, tarjimon mahorati, tarjima matni, badiiy tasvir vositalari, portret tasviri, asar qahramonlari.

К вопросу воссоздания изобразительных средств при переводе художественных произведений

Нурдинова Фотима Холмирзаевна,
Наманганский инженерно-технологический институт, докторант.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование изобразительных средств в произведениях искусства, их важные аспекты, а также вопросы отражения в переводе. Кроме того, на примерах выражается проявление мастерства переводчика при переводе художественных произведений.

Ключевые слова. Пейзаж, изображение природы, авторский стиль, мастерство переводчика, переводной текст, средства художественного изображения, портретный образ, персонажи произведения.

On the issue of recreating visual means in the translation works of literary works.

Nurdinova Fotima Kholmirzaevna,
Namangan Institute of Engineering and Technology, doctoral student.

Annotation. *This article discusses the use of visual means in works of literary works, their important aspects, as well as issues of reflection in translation. In addition, examples express the manifestation of the translator's skill in the translation works of literary works.*

Keywords. *Landscape, image of nature, author's style, translator's skill, translated text, means of artistic depiction, portrait image, characters of the work.*

Kirish

Peyzaj, ya'ni tabiat va atrof-muhit tasviri personaj xarakterining qirralarini, hususan, muayyan vaziyatdagi ruhiy holatini badiiy ifodalashning muhim vositalaridan biridir. Badiiy tasvir vositalarini aniq bir maqsadga yo'naltira olish, hamda asarda ularga alohida diqqat qaratish, badiiy tasvir vositalariga muhim vazifalar yuklata olishi bilan yozuvchining mahorati namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Portret va peyzaj manzaralari ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi omillardan biridir. Odatda, peyzajning har bir detali asarda turli g'oyaviy-badiiy vazifalarni bajaradi. Ular badiiy asarning tarkibiy qismi sifatida, asar qahramonlarining ruhiyatini, hissiyotlarini to'laroq ifoda etishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, tabiat tasviri qahramonlar dunyosini, ular yashayotgan muhitni tasvirlashning muhim vositasidir. Bu o'z o'rnida, insonni har tomonlama kamol toptirish, unda estetik didni shakllantirish, shaxsni estetik tarbiyalashning muhim omillaridan biri sanaladi [1. 3 b]. Peyzaj-tabiat tasviri har bir adibning ijod mahsulida o'ziga hos tartib va shaklda namoyon bo'lib, ba'zi asarlarda yozuvchi aks ettirishni maqsad qilgan ruhiy holat, vaziyatni yoritishga xizmat qiladi. Barcha holatlarda peyzaj tasviri asar g'oyasini yoritishga, qahramon xarakterini ochishga yo'naltirilishi lozim. Bu badiiy adabiyotning eng muhim talablaridan biridir.

Peyzaj tasviri tarjimada asl nusxadagidek aks ettirilishi bilan muhimdir. Tasvir unsurlari tarjima matnida "xira tortsa", asarning badiiyligiga putur yetadi.

Zero, tabiat tasviridagi har bir detal ma'nosiga ko'ra, ma'lum maqsadlar uchun qo'llaniladi.

Ma'lumki, epik asarlarda tabiat manzaralari ma'lum bir vaqtga, qahramon bog'liq bo'lgan shart-sharoitlarga bo'ysundiriladi va xarakteridagi yoki hayotidagi vaziyatlarning o'zgarishlarni ifodalashga xizmat qiladi [2. 14 b]. Bu borada tarjimonni vazifasi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: boshqa tilda yaratilgan badiiy asar tilining xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarjima qilinayotgan asarning na ruhigana mazmuniga va na ohangiga zarar yetkazmasdan o'girish, asl nushadagi ibora va ifoda vositalarga, obrazlarga ruh, ma'no, vazn, ohang jihatidan hamda kitobxon qalbida hosil qiladigan tuyg'ular, tug'iladigan tasavvurlar jihatidan tugal, mos va monand bo'lgan so'z va iboralarni o'z tilidan topishdan iborat [3. 86 b]. Sh.Ibrohimova o'zining tadqiqot ishida peyzajni tarjimada berishda quyidagi holatlarga alohida diqqat qaratish lozimligini e'tirof etadi:

1. Peyzaj tili (kimning nutqi-qahramon yoki muallif nutqiga oidligi).
2. Peyzajning qahramon tuyg'usi va asarning o'zi bilan bog'liqligi.
3. Peyzaj va keyingi voqealar o'rtasidagi kontrast (agar asliyatda mavjud bo'lsa).
4. Peyzajning milliy belgilari.
5. Tabiat va insonlar hayoti o'rtasidagi uyg'unlashuv.
6. Muallif tasvirlagan peyzajning xarakterli belgilari [4. 51 b].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani yozishda uning oldiga qo'yilgan muammoni yoritib berishda tahlil qilish, qiyoslash, chog'ishtirish va tipologik jihatdan sharhlash kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Ingliz adibasi E.Lilian Voynichning "Gadfly" asari taniqli adib, hamda mohir tarjimon M.Ismoilov tomonidan bilvosita ya'ni rus tilidan o'zbek tiliga o'girilgan bo'lib, asarda ko'plab tabiat tasviri hamda qahramonlar portretiga to'qnash kelasiz. Yuqorida qayd etganimizdek, asliyatda peyzaj muhim rol o'ynagan. Asarda aks

etgan peyzaj va portret tarjimon tomonidan mohirona o'girilgan bo'lib, uni o'qigan har qanday kitobxon tarjimon mahoratiga yuksak baho beradi. Shuningdek, asardagi tasvirlar bevosita qahramonlarni ichki kechinmalari, kayfiyati, xarakteri bilan bog'liq ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Quyida asliyat matnida berilgan tasvirni tarjimada berilishiga e'tiborni qarataylik:

They walked along the water's edge to a quiet spot and down on a low stone wall. Close beside them grew a rose-bush, covered with scarlet hips; one or two belated clusters of creamy blossom still hung from an upper branch, swaying mournfully and heavy with raindrops. On the green surface of the lake a little boat, with white wings faintly fluttering, rocked in the dewy breeze. It looked as light and frail as a tuft of silvery dandelion seed flung upon the water. High up on Monte Salvatore the window of some shepherd's hut opened a golden eye. The roses hung their heads and dreamed under the still September clouds, and the water plashed and murmured softly among the pebbles of the shore [5. 19 b].

Asliyatdan olingan ushbu parcha rus tiliga quyidagicha o'girilgan:

Они прошли вдоль берега к тихому, уединенному месту и уселись на низкой каменной стене. Около нее рос куст шиповника, покрытый алыми ягодами. Несколько запоздалых бледных розочек, отягченных дождевыми каплями, свешивались с верхней ветки. По зеленой глади озера скользила маленькая лодка с легким белым, парусом, слабо колыхавшимся на влажном ветерке. Лодка казалось легкой и хрупкой, словно серебристый, брошенный в воду одуванчик. На Монте Сальваторе как золотой глаз, сверкнула окно одинокой пастушьей хижины. Розы опустили головки, задремав под облачным сентябрьском небом; вода с тихим плеском набегала на прибережные камни [6. 33 b].

O'zbek tiliga esa mohir tarjimon M.Ismoilov tomonidan quyidagicha o'girilgan:

Ular qirg'oq bo'yi bilan yurib borib jim, xilvat yerga keldilarda, toshdan qurilgan pastgina devorga o'tirdilar. Yonida qip-qizil gullariga ko'milgan atirgul

qad ko‘tarib turardi. Kechikib qolgan bir qancha ochilmagan g‘uncha yomg‘ir tomchilari og‘irlashtirgan baland shoxlarda osilib yotadi. Ko‘lning zumrad yuzida yengil, oppoq yelkanlarini mayin shabada shishirgan kichkina qayiqcha suzib boradi. Qayiq suvga tashlangan bir dasta kumush gul kabi yengil va mo‘rt ko‘rinar edi. Monter-Salvator tepaligida allaqanday bir uycha derazasi tilla ko‘zini ochdi. Atirgullar boshlarini solintirib, bulutli sentyabr osmoni tagida mudrar, suv qirg‘oq toshlariga urilib, mayingina jildirar edi [7. 25 b].

Asliyatda berilgan “stone wall” jumlasini rus tiliga “kamennoy stene” deb tarjima qilingan. O‘zbek tiliga “tosh devor” deb tarjima qilinsa bo‘lardi, lekin tarjimon tushunarli qilib “toshdan qurilgan devor” deb qurilgan so‘zini berib o‘tgan.

“Green surface of the lake” birikmasini rus tiliga “zelennoy gladi ozero” deb tarjima qilingan. Buni o‘zbek tiliga jo‘ngina “ko‘lning yashil yuzasi” deb tarjima qilinsa bo‘lardi, lekin tarjimon suvning tiniqligini yanada aniqroq qilib “ko‘lning zumrad yuzi” deb tasviriy vositalardan biri bo‘lmish metaforadan foydalangan holda o‘zbek tiliga o‘g‘irgan.

Yana bir misolga etiborni qarataylik:

“Oh, Padre, it was so jolly! The mountains look perfectly glorious at sunrise; and the dew is so thick! Just look!” He lifted for inspection wet and muddy boot [5. 15 b].

Asliyatdan olingan ushbu parcha rus tiliga quyidagicha o‘g‘irilgan:

Ах, padre, как там хорошо! Восход солнца в горах! Сколько в этом величия! А какая сильная роса! Взгляните. -Он поднял ногу в мокром, грязном башмаке [7. 30 b].

O‘zbek tiliga esa quyidagicha o‘g‘irilgan:

O, padra, biram yaxshi u yoqlar! Quyoshning ilk yog‘dulari tushganda tog‘lar salobatini ko‘rsangiz edi! Oyoq bosgan yeringizda shabnamlar silkillab yotadi! Mana, qarang!...- u egilib, xo‘l, kir oyoq kiyimlariga qaradi [7. 20 b].

Asliyatda berilgan tabiat tasviri M.Ismoilov tomonidan yuksak mahorat bilan berilgan. Misol uchun “Восход солнца в горах!” jumlasini o‘zbek tiliga jo‘ngina

“tog‘lar orttidan quyoshning chiqishi!”, “Сколько в этом величия!” jumlasini esa “naqadar serviqor” deb o‘zbek tiliga o‘girib qo‘yish mumkin edi. Lekin tarjimon birinchi va ikkinchi jumlaning birgina jumla bilan mohirona “Quyoshning ilk yog‘dulari tushganda tog‘lar salobatini ko‘rsangiz edi!” deb tarjima qilgan. “А какая сильная роса!” jumlasini “shabnam quyuqligini qarang” deb o‘girilsa ham bo‘lar edi. Lekin tarjimada “oyoq bosgan yeringizda shabnamlar silkillab yotadi!” tarzida berilgan.

Mazkur tabiat lavhasi tarjimasi mazmun hamda uslub jihatidan qaralganda muvaffaqiyatli chiqqan. Tarjimon lavhada berilgan so‘zlarni so‘zma-so‘z tarjima qilmagan, u aynan o‘z ona tilining imkoniyatlari va hususiyatlarini hisobga olgan holga holda peyzaj tasvirini qayta gavdalantirgan.

Bu tasvirni o‘qigan kitobxon beixtiyor tasvirdagi tabiat qo‘yniga tushib qolgandek bo‘ladi. Bundan tashqari yuqorida aytganimizdek asarda keltirilgan tasvirlar bevosita asar qahramoni bo‘lmish Arturning ichki kechinmasi, kayfiyati xarakteri bilan bog‘liq ekanligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Quyida E.L.Voynichning “Gadfly” asarida keltirilgan tasviriy vositalardan yana birini o‘zbek tiliga qay darajada o‘girilganligini ko‘rib chiqamiz:

“Early in the morning they started for Chamonix. Arthur was very high spirits while driving through the fertile valley country; but when they entered upon the winding road near Cluses, and the great, jagged hills closed in around them, he became serious and silent” [5. 11 b].

Asliyatdan olingan ushbu parcha rus tiliga quyidagicha o‘girilgan: “На другой день рано утром они отправились в Шамонии. Пока дорога бежала плодородной долиной, Артур был очень веселом настроении. Но вот близ Клуза им пришлось свернуть на крутую тропинку. Большие зубчатые горы охватили их тесным кольцом. Артур стал серьезен и молчалив” [6. 12 b].

O‘zbek tiliga esa mohir tarjimon M. Ismoilov tomonidan quyidagicha o‘girilgan:

“Ertasi kuni saharlab Shamoniga jo‘nadilar. Ular hosildor vodiya ketar ekanlar, Arturning kayfi nihoyat chog‘ bo‘lib bordi. Ana, yo‘l muyilishiga keldilar.

Cho‘qqilari tishlarga o‘xshagan azamat tog‘lar halqasi to‘rt tarafdin siqib oldi. Artur jiddiylashdi, jim bo‘lib qoldi” [7. 13 b].

Tarjima matnidin ko‘rishimiz mumkinki, asliyat matni ma‘nosi to‘laligicha aks ettirilishi bilan bir qatorda asliyat matnidagi tasviriy vositalar ham o‘z aksini topgan. Tarjimon shunday so‘z va iboralardan foydalanganki, tarjima matni xuddi asliyatdagidek jonli va jozibali tarzda aks ettirilgan.

Masalan, ingliz tilidagi “Arthur was very high spirits” so‘z birikmasi rus tiliga “Артур был очень веселом настроении” tarzida ifodalangan bo‘lsa, o‘zbek tiliga juda chiroyli tarzda “Arturning kayfi nihoyat chog‘ bo‘lib bordi” deb tarjima qilingan. Bu yerda ingliz tilidagi “high spirit” so‘z birikmasi rus tiliga “веселом настроении” o‘zbek tiliga “yuqori kayfiyatda”, “yaxshi kayfiyatda” tarzida o‘girilsa ham ma‘no o‘z aksini topar edi. Lekin o‘zbek tilidagi tarjimada “kayfiyati chog‘ bo‘lmoq” so‘z birikmasi yordamida o‘girilishi tarjima ishini yanada ta’sirli va ifodali bo‘lishiga xizmat qilgan. Tarjima ishini yana tahlil qilar ekanmiz, asliyat matnidagi “great, jagged hills” iborasi rus tiliga “большие зубчатые горы” deb tarjima qilingan. Ushbu ibora o‘zbek tiliga tasviriy qilib “cho‘qqilari tishlarga o‘xshagan azamat tog‘lar” tarzida o‘girilgan. Bu ham tarjimada tasviriy vositalar ifodasining yaqqol namunalaridan xisoblanadi.

Xulosalar.

Yozuvchi asar syujetiga, voqealar rivojiga bog‘liq holda tashqi kartinalar, tabiat ko‘rinishlari, uy jihozlari, predmet va buyumlar tasvirini yaratadi. Ijodkor biror voqeani hikoya qilishga kirishar ekan, ko‘pincha avval ro‘y berayotgan hodisaning o‘rnini batafsil chizishga harakat qiladi. Shu asosda kitobxon ko‘z o‘ngida konkret mamalakat, shahar-qishloqlar manzarasi, ob-havosi, o‘simliklar dunyosi, tabiati, turmush, kun kechirishi, madaniyati, kiyinish tarzi namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan misollar shuni anglatadiki, o‘zbek tarjimoni nafaqat asar tarjimoni aytmoqchi bo‘lgan ma‘noni batafsil ifodalay olgan balki, shunday chiroyli tasviriy vositalardan foydalanganki, bizningcha asliyat muallifi uslubi o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошпулатов Н. Методика изучения пейзажа как средства идейного замысла и образов-персонажей художественных произведений. АКД. Т.1991.
2. Нуриддинов М. Проблема пейзажа в узбекской советской поэзии: Автореф. канд. филол. наук.
3. G‘. Salomov. Til va tarjima. -T.: Fan, 1996 y.
4. Sh.Ibrohimova., Odil Yoqubov. Romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarida aks etishi. Dissertatsiya, 2010 y.
5. Ethel Voynich. The Gadfly. Global Gray 2019.
6. Voynich E.L. Ovod. Perevod N. Voljinoy. – T.: O‘qituvchi, 1984.
7. Voynich E.L. So‘na. Ruschadan Mirzakalon Ismoilij tarjimasi. Toshkent, 1956 y.